


II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11 952,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 107,0 foizni tashkil etdi.


2024- yil yanvar-iyun oylarida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 1,7 mlrd. so'm, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi 11 544,7 mlrd. so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 306,1 mlrd. so'm va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 100,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)



Asosiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 55,7 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 108,7 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 70,3 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 107,3 % ga o'sishi kuzatildi.




■ 2023- yil yanvar-iyunga nisbatan %, da

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,014 % ni va oʻsish surʻati indeksi 57,7 % ni tashkil etdi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash hajmi va fizik hajm indeksi




Ishlab chiqaradigan sanoat

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11 544,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,585 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmogʻning ulushi 0,08 % ni (2023- yil yanvar-iyun oylarida – 0,06 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 39,8 % (2023- yil yanvar-iyun oylarida – 38,6 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 5,7 % (2023- yil yanvar-iyun oylarida – 5,1 %) va quyi texnologiyali – 51,0 % (2023- yil yanvar-iyun oylarida – 52,5 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %da



Jami viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 10,0 mlrd. soʻmlik (2023- yil yanvar-iyun oylarida 5,9 mlrd. soʻm), oʻrta-yuqori texnologiyali tarmoqda 4 755,4 mlrd. soʻmlik (2023- yil yanvar-iyun oylarida 3 714,0 mlrd. soʻm), oʻrta-quyi texnologiyali tarmoqda 679,1 mlrd. soʻmlik (2023- yil yanvar-iyun oylarida 490,3 mlrd. soʻm), quyi texnologiyali tarmoqda 6100,2 mlrd. soʻmlik (2023- yil yanvar-iyun oylarida 5060,2 mlrd. soʻm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2024- yil yanvar-iyun oylari uchun)**

<i>Mahsulot turlari</i>	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2024- yil yanvar-iyun</i>	<i>2023- yil yanvar-iyun</i>	<i>2023- yil yanvar-iyungaga nisbatan, % da</i>
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)	dona	38 953	34 944	111,5
Maxsus yengil avtomobillar	dona	12 735	11 361	112,1
Aroq	ming litr	126,4	78,2	161,6
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari	ming litr	193,0	360,9	53,5
Gilam va gilam mahsulotlari	ming m.kv	1 680,0	1 208,0	139,1
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	tonna	19 172,3	26 966,2	71,1
Tozalangan o‘simlik yog‘i	tonna	4 191,0	3 288,7	127,4
Paxtadan yigirilgan ip	tonna	18 397,7	14 206,7	129,5
Paxta tolasi	tonna	51 883,8	46 542,8	111,5
Paxta chigiti	tonna	78 055,9	78 638,9	99,3
Shakar	tonna	92 426,3	119 124,2	77,6

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) – 4 009 donaga, maxsus yengil avtomobillar – 1 374 donaga, gilam va gilam mahsulotlari – 472 ming kv.metruga, paxtadan yigirilgan ip – 4 191,0 tonnaga, paxta tolasi – 5 341,0 tonnaga, o‘simlik yog‘i (tozalangan) – 902,3 tonnaga ishlab chiqarish ko‘paygan.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 306,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,56 % ni) tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 70,3 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan natura ko'rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2024- yil yanvar-iyun oylari uchun)

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2024- yil yanvar-iyun</i>	<i>2023- yil yanvar-iyun</i>	<i>2023- yil yanvar-iyungaga nisbatan, % da</i>
Elektroenergiya	mln.kVt/s	599,2	677,9	88,4
Issiqlik energiyasi	ming Gkall	66,1	61,3	107,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 100,4 mlrd. so'mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,84 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda yirik sanoat korxonalarini tomonidan natura ko'rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

(2024- yil yanvar-iyun oylari uchun)

<i>Faoliyat turlari</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2024- yil yanvar-iyun</i>	<i>2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da</i>
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar	mlrd.so'm	92,0	135,0
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	mlrd.so'm	12,1	4,3 m
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar	mlrd. so'm	16,4	169,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2024- yil yanvar-iyun oylari uchun)

<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>2024- yil yanvar-iyun (mlrd. so'm)</i>	<i>2023- yil yanvar-iyun (mlrd. so'm)</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami	11 952,9	9 633,7
Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1,7	2,7
<i>ulardan:</i>		
Tog'- kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	1,7	2,7
Ishlab chiqaradigan sanoat	11 544,7	9 270,4
<i>shundan:</i>		
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	2 246,0	2 041,7
Ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish	750,8	826,4
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	2 499,5	1 915,0
Kiyim ishlab chiqarish	176,6	54,0
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	20,5	6,3
Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, ishlab chiqarish	84,0	19,0
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	125,3	104,0
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	6,0	2,0
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	5,4	59,0
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	31,5	22,3
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	6,4	4,4
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	75,8	40,9
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	335,5	250,6
Metallurgiya sanoati	28,6	22,9
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	213,1	106,4
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	3,6	1,5

<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>2024- yil yanvar-iyun (mlrd. so‘m)</i>	<i>2023- yil yanvar-iyun (mlrd. so‘m)</i>
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	26,1	48,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	134,1	64,0
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	4 563,7	3 579,1
Mebel ishlab chiqarish	122,2	28,0
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	69,2	63,8
Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish	20,8	10,5
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	306,1	302,1
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	100,4	58,5


Iqtisodiy faoliyat turlaridan 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2 499,5 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 1 915,0 mlrd. so‘m), avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 4 563,7 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 3 579,1 mlrd. so‘m), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 335,5 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 250,6 mlrd. so‘m), mebel ishlab chiqarish 122,2 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 28,0 mlrd. so‘m), oshganligini, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 750,8 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 826,4 mlrd. so‘m), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 5,4 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 59,0 mlrd. so‘m), elektr uskunalar ishlab chiqarish 26,1 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 48,7 mlrd. so‘m) kamayganligini ko‘rish mumkin.

Hududlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish
(2024- yil yanvar-iyun oylari uchun)
(o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Sanoat mahsulotlari, mlrd. so‘mda</i>	<i>2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi,%</i>
Xorazm viloyat bo‘yicha	11 952,9	107,0
Urganch sh.	1 843,8	102,0
Xiva sh.	203,2	109,3
Bog‘ot	264,0	109,3
Gurlan	398,1	108,7

Qo‘shko‘pir	367,4	110,4
Urganch	634,4	106,8
Hazorasp	272,2	107,4
Tuproqqal‘a	5 856,0	107,1
Xonqa	609,1	108,0
Xiva	295,8	104,0
Shovot	495,9	104,8
Yangiariq	378,5	101,0
Yangibozor	334,8	110,9


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi Urganch shahrida 2,0 foizga, Xiva shahrida 9,3 foizga, Bog‘ot tumanida 9,3 foizga, Gurlan tumanida 8,7 foizga, Qo‘shko‘pir tumanida 10,4 foizga, Urganch tumanida 6,8 foizga, Hazorasp tumanida 7,4 foizga, Tuproqqal‘a tumanida 7,1 foizga, Xonqa tumanida 8,0 foizga, Xiva tumanida 4,0 foizga, Shovot tumanida 4,8 foizga, Yangiariq tumanida 1,0 foizga, Yangibozor tumanida 10,9 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.



Diagrammada ko‘rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo‘lgan Tuproqqal‘a tumani 49,0 foiz, Urganch shahri 15,4 foiz, Urganch tumani 5,3 foiz, Xonqa

tumani 5,1 foiz, Shovot tumani 4,1 foiz, Qo‘shko‘pir tumani 3,1 foiz, Gurlan tumani 3,3 foiz, Yangiariq tumani 3,2 foiz, Yangibozor tumani 2,8 foiz, Hazorasp tumani 2,3 foiz, Xiva tumani 2,5 foiz, Bog‘ot tumani 2,2 foizni hamda eng past bo‘lgan va Xiva shahri 1,7 foizni tashkil qildi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida, foiz hisobida




Davlat va xususiy biznesning o‘zaro hamkorligi doimo har bir zamonaviy demokratik davlatning diqqat e‘tiborida bo‘lgan. Keyingi yillarda butun dunyoda hukumat va biznes hamkorligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta‘minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq, Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalar tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 6 389,4 mlrd. so‘mlik, hududiy korxonalar tomonidan 5 563,5 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shuning bilan birga davlat sektorida 63,6 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 0,5 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 11 889,3 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 99,5 %ni tashkil etdi.

Hududiy va tarmoq korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari, mlrd so‘m (2024- yil yanvar-iyun oylari)

Viloyatda 2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududiy korxonalar tomonidan 5 563,5 mlrd. so‘mlik, tarmoq korxonalar tomonidan 6389,4 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.




2024- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ming so'm</i>
Xorazm viloyati bo'yicha	5 969,4
Urganch sh.	11 994,8
Xiva sh.	2 052,8
Bog'ot	1 493,5
Gurlan	2 523,7
Qo'shko'pir	2 011,1
Urganch	2 957,3
Hazorasp	1 316,4
Tuproqqal'a	98 212,5
Xonqa	3 059,7
Xiva	1 903,7
Shovot	2 740,6
Yangiariq	3 064,5
Yangibozor	3 608,0

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili, Tuproqqal'a tumanida (98 212,5 ming so'm), Urganch shahrida (11 994,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 969,4 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Qolgan Bog‘ot tumanida (1 493,5 ming so‘m), Hazorasp tumanida (1 316,4 ming so‘m), va Xiva tumanida (1 903,7 ming so‘m) ko‘rsatkich past ekanligini ko‘rish mumkin.

2024- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining o‘shishi, 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, %da




2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining o‘shishi, 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,0 % ni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda yildan yilga ularning hissasi tobora ortib bormoqda.

Xususan, 2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 38,1 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 2 469,1 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 20,7 %ni tashkil etmoqda.


**Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarishdagi ulushi, %da
(2024- yil yanvar-iyun oylari)**



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Urganch tumanida (57,5 %), Xiva shahrida (56,0 %), Qo'shko'pir tumanida (48,4 %), Bog'ot tumanida (40,8 %), Xonqa (42,7 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulush Tuproqqal'a (2,2 %) tumanida kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarilishi mlrd. so'm**


2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlaridan Urganch shahrida 668,7 mlrd. so'mlik, Urganch tumanida 364,7 mlrd. so'mlik, Qo'shko'pir tumanida 177,9 mlrd. so'mlik, Xonqa tumanida 260,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Qo'shma korxonalarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi

Hisobot davrida 23 ta qo'shma korxonadan 1 104,7 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi esa 9,2 % ni tashkil etdi.

Viloyatda qo'shma korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda hududlar bo'yicha qo'shma korxonalarining umumiy hajmidagi ulushi, %da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatda 3 882 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 658 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,0 %) Urganch shahriga, 432 tasi (11,1 %) Urganch tumaniga, 365 tasi (9,4 %) Qo'shko'pir tumaniga, 365 tasi (9,4 %) Xonqa tumaniga va 318 tasi (8,2 %) Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2024- yil yanvar-iyun)



Viloyatda 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 864 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo‘lib, shularning 139 tasi Shovot tumaniga, 78 tasi Yangiariq tumaniga, 70 tasi Hazorasp tumaniga, 70 tasi Xiva tumaniga, 74 tasi Urganch tumaniga, 75 tasi Urganch shahriga, 66 tasi Gurlan tumaniga, 66 tasi Xiva shahriga to‘g‘ri keladi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 80 ta loyiha bo‘yicha 724,8 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari




**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari
(2024- yil yanvar – iyun oylari uchun)**

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Loyihalar soni, birlikda</i>	<i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>Eksporthga sotilgan mahsulot hajmi, mln AQSh dollari</i>	<i>Yangi tashkil qilingan ish o'rinlari soni, birlikda</i>
Jami:	80	724,8	4,4	113
<i>shundan;</i>				
Urganch sh.	19	43,474	0,378	50
Xiva sh.	2	63,978	0,144	15
Bog'ot	1	-	-	-
Gurlan	5	1,697	-	-
Qo'shko'pir	3	4,953	0,295	-
Urganch	4	6,781	0,119	10
Hazorasp	5	2,810	-	3
Tuproqqal'a	24	524,822	3,450	17
Xonqa	2	3,994	-	10
Xiva	6	5,822	-	6
Shovot	4	65,448	-	-
Yangiariq	4	0,990	-	2
Yangibozor	1	0,064	-	-

Shahar va tumanlar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahrida 19 ta loyihada 43,5 mlrd so'mlik, Xiva shahrida 2 ta loyihada 64,0 mlrd so'mlik, Gurlan tumanida 5 ta loyihada 1,7 mlrd so'mlik, Qo'shko'pir tumanida 3 ta loyihada 5,0 mlrd so'mlik, Urganch tumanida 4 ta loyihada 6,8 mlrd so'mlik, Hazorasp tumanida 5 ta loyihada 2,8 mlrd so'mlik, Tuproqqal'a tumanida 24 ta loyihada 524,8 mlrd so'mlik, Xonqa tumanida 2 ta loyihada 4,0 mlrd so'mlik, Xiva tumanida 6 ta loyihada 5,8 mlrd so'mlik, Shovot tumanida 4 ta loyihada 65,4 mlrd so'mlik va Yangiariq tumanida 4 ta loyihada 1,0 mlrd so'mlik, Yangibozor tumanida 1 ta loyihada 0,1 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda



Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Tuproqqal'a tumani 72,4 foiz, Shovot tumani 9,0 foiz, Urganch shahri 6,0 foiz va Xiva shahri 8,8 foizni hamda eng past bo'lgan Yangibozor tumani 0,01 foiz va Yangiariq tumani 0,1 foizni tashkil qildi.

Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, nosanoat bo'linmalarga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi: ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar).

Sanoat ishlab chiqarishida o'zgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Iste'mol tovarlari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarida (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi.

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarishi hajmi – boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan, korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot.

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash - Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

Mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqaradigan sanoat – yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.